Pensiya tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillarning ta'siri ostida muttasil o'zgarishga yuz tuvchi o'zgaruvchan tizim hisoblanadi, shu bois, dunyo mamlakatlarining pensiya ta'minoti tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlarini muttasil tadqiq etib borish, ularning tajribasidan milliy pensiya tizimi samaradorligini oshirish borasida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Pensiya ta'minoti bugungi kunda har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi ^[8]. 1948-yilda qabul qilingan Butunjahon Inson huquqlari xalqaro deklaratsiyasining 22-moddasida jamiyatning har bir a'zosi har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, uning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy ta'minotga va o'zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqini amalga oshirishga haqli ekanligi o'z aksini topgan.



1-rasm: Pensiya tizimining amaldagi ko'rinishlari

Jahon amaliyotida pensiya tizimini isloh qilishning majburiy pensiya sug'urtasi, aralash pensiya modeli, taqsimlanuvchi pensiya tizimlari o'rnini qoplovchi va pensiyani moliyalashtirishning jamg'arib boriladigan prinsipiga asoslangan pensiya modellari mavjud bo'lib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Iqtisodiyotda taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimlari sof holda uchramaydi va har bir mamlakat makroiqtisodiy, demografik yoki siyosiy omillar ustunligiga qarab, ushbu ikkala tizimning u yoki bu elementlaridan foydalanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari va Avstraliyada pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini avtomatik tarzda tartibga solishning "avtomatik sozlash mexanizmi" ikki mezonga, ya'ni pensiya yoshi va pensiya sug'urtasi badallari stavkasi darajasi asoslanadi hamda ushbu mexanizmdagi tanlangan mezonlardan (o'zgaruvchilardan) birining o'zgarishi avtomatik ravishda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida tizimning ishlash parametrlarining o'zgartirilishiga va unga moslashishga olib keladi. Janubiy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi makroiqtisodiy, demografik va siyosiy jarayonlar dinamikasiga (davriy o'zgarishlar bilan) qarab, milliy pensiya ta'minoti tizimining faoliyatida qonunchilikni takomillashtirish orqali "qo'l"da boshqarishning ustunligi namoyon bo'ladi. Bunda islohotlarning mohiyati pensiya ta'minotining jamg'arib boriladigan tizimi asosida xususiy pensiya ta'minoti tizimiga o'tishdan iborat.

Quyida u yoki bu davlatga xos bo'lgan milliy pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi omillarni batafsil ko'rib chiqamiz:

Ijtimoiy omillar mamlakat darajasida ijtimoiy va mehnat munosabatlarining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Davlat rivojlanishining tarixiy va etnik-madaniy xususiyatlari, milliy mentalitet, jamiyatning dinga bo'lgan munosabati, davlat tomonidan strategik va taktik maqsadlarni ko'zlagan holda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, aholining ijtimoiy tarkibi, mehnat bozorida vaziyat, tarkib topgan ish haqi darajasi kabilarni ijtimoiy omillarga misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiy omillar davlatning moliyaviy imkoniyatlari, milliy pensiya tizimining asosi va uning faoliyat ko'rsatish samaradorligini belgilab beruvchi iqtisodiy shart-sharoitlarni belgilab beradi. Iqtisodiy omillar sirasiga davlat moliyasining holati, jamiyat farovonligi darajasi, strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosat, davlatning iqtisodiyotdagi o'rni, mamlakatda ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Demografik omillar ham yuqoridagi omillar singari pensiya tizimining sifat va miqdoriy xususiyatlarini aniqlashda muhim mo'ljal sifatida xizmat qiladi, chunonchi demografik omillar jamiyatning pensiya himoyasiga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi. Demografik omillar o'z ichiga aholining yosh tarkibi, pensionerlarning jamiyatdagi ulushi, aholining o'sish sur'atlari, ish bilan band bo'lganlar va pensionerlarning nisbati kabi bir qator ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Pensiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish asnosida yaxlit tarzda pensiya tizimlarini tasniflashga harakat qilamiz. Pensiya tizimlarini tiplarga ajratish va tizimlashtirishning bir necha mezonlari mavjud. Bunda asosiy mezon sifatida davlatning o'rni muhim o'rin egallaydi. Milliy pensiya tizimiga davlat va xususiy tashkil etuvchilarning ta'siridan kelib chiqqan holda, pensiya tizimlarini quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin^[9]:

- davlat pensiya tizimi (davlat pensiya ta'minoti ustunlik qiladi);
- aralash tizim (davlat va xususiy pensiya ta'minotining o'ziga xos qorishmasi);
- xususiy pensiya ta'minoti (xususiy pensiya ta'minoti ustunlikka ega bo'ladi).

Pensiya tizimlarini tizimlashtirishning navbatdagi mezon sifatida moliyalashtirish tamoyilidan foydalanish mumkin^[10]. Ushbu mezonga ko'ra pensiya tizimlarining quyidagi turlari (modellari) ajratiladi:

- taqsimlovchi (pensiya to'lovlari uchun joriy xarajatlar joriy, ko'pincha soliqli tushumlar hisobidan moliyalashtiriladi va to'lovlar budjet yoki budjetdan tashqari fondlardan amalga oshiriladi);
- jamg'arib boriluvchi (maxsus jamg'armadagi ishtirokchining hisobvarag'ida ish haqidan ajratmalar shaklida kapital shakllanadi, bu kapital investitsiya qilinadi va investitsiyadan olingan daromad bilan birgalikda jamg'arilgan kapital pensiya shaklida to'lab beriladi);
- aralash (taqsimlash va jamg'arishga asoslangan pensiya tizimlaridan bir o'rinda foydalaniladi).

Pensiya tizimining taqsimlashga asoslangan modeli (pay-as-you-go system) avlodlar birdamligi tamoyiliga asoslanadi, shuning uchun uni ko'pincha solidar model sifatida ham talqin qilishadi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, keksa avlod (pensionerlar) ning pensiya ta'minoti uchun javobgarlik yosh avlod (iqtisodiy faol aholi) zimmasiga yuklatiladi. Aksariyat holatlarda taqsimlash tizimi davlatga tegishli bo'ladi. Taqsimlash modelida, qoida tariqasida, mehnat staji va ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, kafolatlangan pensiya darajasi belgilanadi, (pensiya darajasi, odatda, past bo'ladi, chunki bunda asosiy e'tibor kambag'allikdan himoya qilishga qaratiladi). Ushbu modelning asosiy kamchiligi uning demografik o'zgarishlarga nisbatan zaifligida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy faol aholining (amalda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotganlar) ulushi qanchalik past va pensionerlarning aholi yosh tarkibida ulushi qancha yuqori bo'lsa, to'lovlarni moliyalashtirish budjetga shuncha katta yuk bo'lib tushadi.

Jamg'arib boriluvchi model (funded system) sug'urta tamoyiliga asoslanadi, pensiya to'lovlari ishtirokchilarning butun mehnat faoliyati davomidagi badallari hisobidan shakllantirilgan jamg'armadan amalga oshiriladi. Mazkur modeldan foydalanish asosida ish haqi o'rtacha va o'rtachadan yuqori bo'lgan xodimlar kelajakda o'zlarining o'rtacha ish haqiga teng bo'lgan miqdorda pensiya olishga umid qilishlari mumkin bo'ladi. Biroq, u milliy moliya bozorining yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutadi, xususan, jamg'arib boriluvchi pensiya ta'minoti ko'p jihatdan zarur infratuzilmaning mavjudligi, bozor ko'lami, raqobat darajasi, tartibga solish va nazorat sifati, yuqori bo'g'in rahbariyatining professionallik darajasi va xatarlarni boshqarish sifati kabilarga bog'liqdir. Bundan tashqari, mazkur tizimni taqsimlash tizimi bilan taqqoslash, u demografik omillarga nisbatan kamroq sezgir bo'lsada, ammo u investitsiya jarayonining samarasizligi va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida moliyaviy aktivlarning qadrsizlanish xatari bilan ifodalanuvchi iqtisodiy omillarga juda ham sezgir ekanligi borasida xulosa qilish imkonini beradi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi keyinchalik uni pensiya yoshiga yetganda tovar va xizmatlarni iste'mol qilishga almashtirish maqsadida mehnat faoliyati davomida ma'lum bir aktivlar portfelini shakllantirish imkoniyatini beradigan bo'lsa, asosan davlat tasarrufida bo'lgan taqsimlashga asoslangan pensiya tizimi pensionerga yosh avlod tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning bir qismini o'zlashtirishiga va'da beradi ^[11].

Pensiya tizimini tashkil etishning nazariy asoslarini ko'rib chiqish milliy pensiya tizimini yaratishning turli xil mumkin bo'lgan variantlari mavjudligini ko'rsatadi. Quyida xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimlarini tashkil qilish amaliyotini ko'rib chiqamiz.

Qadimgi Yunonistonda ham davlat oldida xizmat ko'rsatgan keksa fuqarolarga nafaqalar to'lab berilgan ^[12]. Rim imperiyasida harbiy pensiyalar harbiy xizmatchilarga umrbod to'lab berilgan.

Tahlillarning ko'rsatishicha, pensiya tizimi dastlab Germaniyada 1889-yilda joriy qilingan. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, pensiya nafaqat davlat xizmatchilari, balki xususiy sektorda band bo'lganlarga ham to'langan. Germaniya pensiya tizimi ish beruvchi va xodimlarning badallari hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi majburiy ijtimoiy sug'urtaga asoslanadi. Fuqaroning pensiya huquqlari miqdori to'g'ridan to'g'ri to'langan badallar miqdoriga bog'liq bo'lgani holda, Germaniya pensiya tizimini yaratishning asosiy tamoyili pensiyaga chiqqandan keyin xodimning mulkiy holati va ijtimoiy mavqeyini saqlab qolish tamoyiliga asoslangan edi.

Germaniya pensiya ta'minoti modeli uch darajali pensiya hisoblash tizimiga asoslanadi. Birinchi bosqich-davlat pensiyasi (gesetzliche Altersversorgung), bu ish joylari majburiy pensiya sug'urtasi bilan sug'urtalangan barcha xodimlar uchun majburiydir. Uning kelgusidagi miqdori pensiya badallari miqdori, ya'ni bo'lg'usi pensionerning ish haqiga bog'liq bo'ladi.

Germaniyada davlat pensiyasi bo'lg'usi pensiyaning asosiy qismini tashkil qiladi, lekin u ko'pincha oluvchiga odatiy va maqbul turmush darajasini ta'minlay olmaydi. Mazkur tizim tanqidchilarining fikricha, xodimlarning bugungi kunda ish haqi darajasining pastligi hisobiga ularning kelgusida ham pensiya miqdorlari past bo'ladi, bu esa jamiyatda kam ta'minlanganlar sonining ko'payishiga olib keladi.

Germaniya pensiya tizimining ikkinchi darajasi ishlab chiqarish pensiyasi (betriebliche Altersversorgung) deb ataladi, bu, o'z navbatida, davlat sektori xodimlari va tegishli kasaba uyushmalari nazorati ostidagi yirik xususiy sektor kompaniyalari xodimlari uchun pensiyalarga bo'linadi. Bunday holatda ish beruvchi ushbu turdagi pensiyani rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha choralarni o'z zimmasiga oladi va aksariyat hollarda davlat tomonidan taqdim etiluvchi soliq imtiyozlarini hisobga olgan holda, ishchilarning ish haqidan pensiya badallarini mustaqil ravishda ushlab boradi, xodimlarning ish haqidan bo'lsa ularning ish joylariga sodiqligidan kelib chiqqan holda badallarni ushlab boradi.

Uchinchi daraja – xususiy pensiya sug'urtasi (private Altersversorgung). Germaniyada istiqomat qiluvchi har qanday nemis fuqarosi keksalikda o'zini qo'shimcha moliyaviy xavfsizlik yostiqchasi bilan ta'minlash uchun istalgan vaqtda xususiy pensiya jamg'armasiga badal to'lashi mumkin. Shu bilan bir qatorda, nemis fuqarolari o'zlarining qarilikda farovonliklarini ta'minlash maqsadida hozirdanoq turli aktivlarga, masalan, qimmatli qog'ozlar va hattoki, kriptovalyutalarga sarmoya kiritadilar.

1891-yilda Daniyada joriy qilingan pensiya tizimi boshqa tamoyillarga asoslangan holda tashkil qilingan. U dastlab ijtimoiy sug'urtalashni ko'zda tutmagan holda pensiyalar soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirilib kelingan. Bu birdamlik tizimida tenglashtiruvchi yondashuvning namunasi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining eng kambag'al qatlamlari uchun minimal yashash sharoitlarini ta'minlashdan iborat edi. Bugungi kunga qadar Daniya pensiya tizimi takomillashib keldi, hozirda mamlakat milliy pensiya tizimi MCGPI indeksida dunyo bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Daniyada pensiya tizimining o'ziga xosligi shundaki, mamlakatda istiqomat qiluvchi fuqaro bir nechta manbalardan pensiya olish mumkin. Mamlakatda pensiya tizimi universal tavsifga ega bo'lgani holda, u mamlakatning barcha fuqarolarini qamrab oladi. Mamlakat pensiya tizimi quyidagi darajalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Davlat pensiya rejasi va majburiy jamg'arma pensiya rejasi;
- Majburiy kasbiy pensiya rejasi;
- Ixtiyoriy pensiya rejasi.



Daniyada davlat pensiya tizimi umrbod to'lash tamoyiliga asoslanadi. Pensionerlarning umumiy miqdori pensionerlarning shaxsiy daromadi va oilaviy holatiga bog'liq. Pensiya miqdori ish stajiga va badallarga bog'liq emas. Davlat pensiyasi asosiy pensiya va ustamalardan iborat bo'lib, uni to'lash davlat budgetiga soliq tushumlari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat qo'shimcha pensiya nafaqalarini ham to'laydi. Davlat pensiyasini olishning asosiy shartlari quyidagicha:

- mamlakatda 40 yil davomida istiqomat qilish;
- pensiya yoshi 66 yoshga teng, pensiyaga chiqish yoshini 69 yoshga ko'tarish ko'zda tutilgan.

Pensionerlarning moliyaviy ahvoli davlat pensiyasi miqdoriga ta'sir qiladi. Investitsiya daromadi, ixtiyoriy pensiya yoki kasbiy pensiya asosiy pensiya miqdoriga ta'sir qilmaydi. Biroq, agar pensioner o'z ishini davom ettirsa, asosiy pensiya kamaytirilishi yoki butunlay bekor qilinishi mumkin. Ishlayotgan pensionerlar uchun asosiy pensiyani olish muddatini kechiktirish imkoniyati taqdim etiladi.

ATP guruhi 1964-yilda Daniya parlamenti tomonidan tashkil etilgan mustaqil organ bo'lib, u pensiya jamg'armasi (ATP Lifelong Pension) va protsessing markazini o'z ichiga oladi. ATP hozirda Yevropadagi eng yirik pensiya jamg'armalaridan biri bo'lib, 5,3 million ishtirokchiga ega (2020-yilda mamlakat aholisi soni 5,8 million kishini tashkil qilgan). ATP Lifelong Pensionning maqsadi fuqarolarning keksalik davrida davlat pensiyasi bilan birgalikda birlamchi moliyaviy xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir.

ATP Lifelong Pension davlat pensiyasidan tashqari qo'shimcha pensiya daromadlarini ta'minlash borasida majburiy Daniya pensiya rejasi hisoblanadi. Mamlakat fuqarolari ATPga quyidagi holatlarda badal to'lashlari shart ^[13]:

- fuqaro yollanib ishlasa va ijtimoiy ta'minot bo'yicha nafaqa olsa;
- 16 yoshga to'lgan har qanday fuqaro;
- Daniyada mehnat faoliyat bilan shug'ullanuvchi yoki daniyalik ish beruvchi tomonidan qisqa muddatga chet elga yuborilgan fuqaro;
- haftasiga kamida 9 soat ishlaydigan fuqaro.

Daniya pensiya jamg'armasi ATPning investitsion faoliyati alohida qiziqish uyg'otadi. Jamg'armaning investitsion faoliyati quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi:

- Budget riski va bonus salohiyatidan tashkil topuvchi investitsiya portfelidan samarali foydalanish, ya'ni umumiy risklar bonus salohiyati doirasida bo'lishi lozim;
- Investitsiya maqsadlarini ajratish, unda xedjirlash portfeli kafolatlangan pensiyani ta'min qilsa, investitsiya portfeli (bonus salohiyati);
- pensiyalarning real qiymatini saqlashni ta'minlaydi;
- ATP ning investitsion yondashuvi risklarni diversifikatsiya qilish omillariga asoslanadi.

Buyuk Britaniya va Avstraliyada pensiya tizimlari 1908-yilda, Fransiyada 1910-yilda, Shvetsiyada 1913-yilda va Italiyada 1919-yilda ishga tushirilgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniyadagi amaldagi pensiya tizimi aralash tavsifga ega bo'lgani holda, taqsimlovchi va jamg'arib boriladigan unsurlarni o'z ichiga oladi (3-rasm).

Buyuk Britaniya pensiya tizimining o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, pensiya qonunchiligiga ko'ra, pensionerlarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari taqiqlanmagan. Bu vaqtinchalik yoki doimiy ish bilan ta'minlash orqali nafaqa olish va daromadni oshirish imkonini beradi. Hukumat yaqin istiqbolda pensiyaga chiqish yoshini uzaytirishni ko'zlamogda, bu aholi turmush darajasi va umr ko'rish davomiyligining o'sishi bilan izohlanadi.

Pensiya olishni istagan ayollar uchun yana bir qancha talablar mavjud. Ayni paytda barcha ayol fuqarolar 60 yoshida pensiya olish huquqiga ega.

Britaniya fuqarolari avvalroq pensiyaga chiqish imkoniyatiga egalar. Bunga fuqarolar 55 yoshdan keyin da'vogarlik qilishlari mumkin bo'ladi. Ushbu yoshga yetgunga qadar pensiya to'lovlari faqat sog'liq bilan muam-molar mavjud bo'lgandagina tayinlanishi mumkin.

Davlat pensiya dasturiga muqobil sifatida xususiy pensiya ta'minoti tizimi ham mavjud bo'lgani holda, bu hatto xorijiy fuqarolarga ham bunday ajratmalarni olish imkonini beradi. Nomzodga qo'yiladigan yagona talab – u istalgan ingliz kompaniyasida kamida ikki yillik tajribaga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, davlat dasturidan farqli o'laroq, xususiy pensiya jamg'armalarining xizmatlari to'lovlar bo'yicha cheklavlarni ko'zda tutmaydi. Badallarning minimal miqdori, odatda, xodim umumiy daromadining taxminan 5-8% ni tashkil qiladi. Biroq fuqaroning xohishiga ko'ra, badal miqdori oshirilishi ham mumkin ^[14].

Boshqa mamlakatlardan farqli tarzda, Shimoliy Amerikada pensiya tizimlarini tashkil etish jarayoni bir muncha kech boshlangan. Kanadada milliy pensiya tizimi 1927-yilda, AQShda esa 1935-yilda yo'lga qo'yilgan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Qo'shma Shtatlarda davlat xizmatchilari uchun pensiyalar 1915-yildan beri to'lanadi va birinchi korporativ pensiyalar, garchi ular tizimli tavsifga ega bo'lmasada, 1875-yildayoq mavjud bo'lgan ^[15]. Bugungi kunda AQShda aralash taqsimlanadigan va jamg'ariladigan pensiya tizimi amal qiladi.



Davlat tomonidan pensiya ta'minotiga ega bo'lish uchun AQShda kamida 10 yil mehnat faoliyatini olib borgan bo'lish lozim. Bu hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqini beruvchi minimal davr hisoblanadi. Bu qoida Amerika hududida istiqomat qiluvchi har bir kishiga, shu jumladan, bu yerda o'rnashib qolishga qaror qilgan xorijiy shaxslarga nisbatan ham amal qiladi. Gap shundaki, ish joyida rasman ro'yxatdan o'tgan mamlakatning har bir fuqarosidan pensiya jamg'armasiga ish haqining ma'lum foizi undiriladi. Har yili barcha ishlaydigan fuqarolarga 4 kredit beriladi – bu yerda ular “ballar” deb nomlanadi. Amerikada pensiya olish huquqiga ega bo'lish uchun bir kishi 40 “ball” to'plagan bo'lishi zarur. Odatda, bunday ballarga ega bo'lish uchun kamida 10 yil ishlash kerak bo'ladi.

Biroq amerikalik pensionerlar faqatgina davlat nafaqalarini olishmaydi. Pensiya ta'minoti uchun jamg'arma hisoblaridan ham ajratmalar yo'naltirilishi mumkin. Odatda, har bir yirik kompaniyaning o'z pensiya jamg'armasi mavjud bo'lib, u yerga xodimlar o'z daromadlarining muayyan bir qismini yuborish imkoniyatiga egalar.

Amerika Qo'shma shtatlarida qarilik pensiyasini olish, shuningdek, nodavlat tizimi doirasida ham tashkil etilishi mumkin. Buning uchun fuqarolar o'zlarining xohishlariga ko'ra pul mablag'larini o'tkazadigan maxsus hisob raqamlarini ochadilar. Fuqarolar mazkur mablag'lardan muayyan bir yoshga yetganlarida yoki ishdan ketgan paytlarida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Davlat ta'minoti ijtimoiy sug'urta tizimining bir qismi bo'lgan pensiya sug'urtasi badallariga asoslanadi. Qo'shma Shtatlarda 43 milliondan ortiq pensionerlar bor. Bu umumiy aholining deyarli 13 foizini tashkil qiladi. To'lanadigan badal stavkasi 7,65% ni tashkil qiladi. Ajratmalar ish beruvchi va xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Umuman olganda, bu miqdor taxminan 15% ni tashkil qiladi. Ushlab qolinayotgan ushlanmalarning bir qismi qarilik chog'ida insonga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish maqsadida tibbiy ta'minotga yo'naltiriladi. Qolgan barcha mablag'lar pensiya ta'minoti uchun sarflanadi: 2023-yilda ushbu yondashuv tufayli mamlakatning deyarli barcha aholisi taqsimlash tizimi asosida faoliyat ko'rsatuvchi federal dastur bilan qamrab olingan ^[16].

Lotin Amerikasi mamlakatlari orasida 1924-yildan boshlab faoliyati yo'lga qo'yilgan Chili pensiya tizimini tadqiq qilish ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakat pensiya tizimi dastlab faqatgina taqsimlash tamoyili asosida faoliyat yuritgan bo'lsa, 1981-yildan boshlab, u to'liq jamg'arib boriluvchi asosga o'tkazildi ^[17]. Hozirgi kunda Chili pensiya tizimi taqsimlovchi va jamg'arib boriladigan quyi tizimlar mavjud bo'lgan aralash model hisoblanadi. Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlarida pensiya tizimini isloh qilish borasida Chili tajribasidan keng foydalanildi. Jumladan, Peruda 1993-yilda jamg'ariladigan tizim joriy qilingan bo'lsa, 1997-yilda Meksika va Boliviya va 1998-yilda esa Salvadora taqsimlash tizimi tugatildi, 1994-yilda Argentina va Kolumbiyada jamg'arish va taqsimlash unsurlarining uyg'unligiga asoslangan aralash tizim joriy qilindi ^[18].

Xitoyda pensiya yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yoshni tashkil qiladi. Pensiyaga chiqishga ish staji, ishlab chiqarish sharoitlari, ishning og'irligi kabilar ham ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda davlat idoralarida, davlat korxonalarida va sanoat korxonalarida ishlagan odamlarga pensiya tayinlanishi kafolatlanadi.

Bugungi kunda Xitoyning pensiya tizimi huquqiy jihatdan amalda uch daraja – davlat tomonidan taqsimlash, davlat tomonidan jamg'arish va ixtiyoriy jamg'arish quyi tizimlaridan iborat ^[19].

Ammo shuni ta'kidlash joizki, davlat taqsimlash quyi tizimi, turli hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat aholisining atigi 30-50 foizini qamrab oladi va haqiqiy pensiya to'lovlari mamlakat aholisining 10% dan ko'p bo'lmagan qismiga to'lab beriladi, jamg'arib boriladigan quyi tizimlar nisbatan yaqinda paydo bo'lgani holda, uning pensiya tizimiga ta'siri deyarli sezilmaydi. Bir so'z bilan aytganda Xitoyda to'laqonli milliy pensiya tizimini yaratish jarayonlari hali ham davom etib kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimini isloh qilish 1980-yillarning boshlarida boshlangan va quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilgan ^[20]:

- pensiya yoshini oshirish (Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Portugaliya, Gretsiya);
- pensiya olish uchun zarur bo'lgan minimal ish stajini oshirish (Germaniya, Gretsiya, Italiya);
- belgilangan muddatdan avvalroq pensiyaga chiqish shartlarini qat'iylashtirish (Germaniya, Fransiya);
- pensiyani indeksatsiya qilish mexanizmlarini qat'iylashtirish (Germaniya, Fransiya, Avstriya, Gollandiya, Finlyandiya, Gretsiya);
- davlat xizmatchilarining pensiya imtiyozlarini kamaytirish (Italiya, Portugaliya, Gretsiya, Finlyandiya);
- pensiya ta'minotida jamg'ariladigan unsurdan kengroq foydalanishga o'tish (Chili, Peru, Argentina).

Pensiya tizimlarini tashkil qilishning jahon tajribasi sof ko'rinishdagi taqsimlashga asoslangan pensiya tizimidan tortib sof ko'rinishdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarini qamrab oladi. Dunyo amaliyotining ko'rsatishicha, pensiya tizimini samarali tashkil etish borasida barcha mamlakatlar uchun birdek mos keladigan maqbul tuzilma yo'q, chunki, milliy pensiya tizimi makroiqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muhitning o'zgarishi asnosida o'zgarishga yuz tutadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya tizimlarini isloh qilishning xalqaro tajribalarga asoslanib, O'zbekistonda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- istiqbolda aholining umr ko'rish davomiyligining o'sib borishini inobatga olgan holda, pensiya yoshini kelgusida oshirish tavsiya qilinadi;
- jamg'arib boriladigan tamoyillarga asoslangan nodavlat pensiya tizimini yaratish va uning huquqiy-me'yoriy asoslarini ishlab chiqish orqali uch darajali pensiya tizimiga o'tish zarur;
- milliy pensiya tizimi samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etishni yanada rag'batlantirish talab etiladi;
- fuqarolarning jamg'arib boriluvchi pensiya badallarini hisobini yuritishni Xalq banki tasarrufidan chiqarish, bu jarayonda boshqa banklarning ishtirokini kengaytirish talab etiladi;
- pensiya dasturlarini moliyalashtirishning sug'urta mexanizmini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Global Competitiveness Report 2015-2016, World Economic Forum, 2015. P. 35–40. [Electronic resource] – Mode of access: http://www3.weforum.org/docs/gcr/2015-2016/Global_Competitiveness_Report_2015-2016.pdf
2. Tursunov J. (2023). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash yo'llari. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(1), 327–333. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a50.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" Qonuni, <https://lex.uz/acts/112314>.
4. Mo'minov I. N. i dr. xorijiy tajriba asosida pensiya tizimini takomillashtirish va rivojlanirish istiqbollari //sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – t. 2. – №. 15. – s. 181–190.
5. M.Karimjonov. Опыт зарубежных стран в отношении регулирования пенсий по инвалидности // Review of law sciences. 2017. –№1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-zarubezhnyh-stran-v-otnoshenii-regulirovaniya-pensiy-po-invalidnosti> (data obrazeniya: 07.04.2024).
6. Blake D. Pension economics. – John Wiley & Sons, 2006.
7. Mamatov Bahodir Safaralievich. Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning ustuvor yo'nalishlari // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. –№1 (137). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/horizhiy-mamlakatlarda-pensiya-taminoti-tizimini-islo-etishning-ustuvor-y-nalishlari> (data obrazeniya: 11.04.2024).
8. Tursunov J., Jumabaeva K. O'zbekistonda Pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari //Journal of Fundamental Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 38-45.
9. Holzmann R., MacArthur I. W., Sin Y. Pension systems in East Asia and the Pacific: Challenges and opportunities. – Washington, DC : World Bank, 2000. – T. 14.
10. Rustamov D., Shemukhamedova S. Indicators and measure for assessing financial stability of the pension system // world economics and finance bulletin. – 2023. – t. 20. – s. 133-140.
11. Barr, N., & Diamond, P. (2006). The economics of pensions. *Oxford review of economic policy*, 22(1), 15-39.
12. Clark G. L. Pension systems: a comparative perspective. – 2000.
13. <https://www.mercer.com/assets/global/en/shared-assets/global/attachments/pdf-2023-mercercfa-global-pension-index-full-report-11-09-2023.pdf>
14. <https://visasam.ru/emigration/pension/pensiya-v-anglii.html>
15. Clark R. L., Craig L. A., Wilson J. A. history of public sector pensions in the United States. – University of Pennsylvania Press, 2003.
16. <https://xnelcahffngcif9bjk1b7a3e8dh.xn--p1ai/novosti/pensii-v-ssha>
17. Iglesias-Palau A. Pension reform in Chile revisited: what has been learned?. – 2009.
18. Richman K. E. et al. La Tercera Edad: Latinos' Pensions, Retirement and Impact on Families. – Notre Dame : University of Notre Dame, Institute for Latino Studies, 2008.
19. Zhu H., Walker A. Pension system reform in China: Who gets what pensions? //Social Policy & Administration. – 2018. – T. 52. – №. 7. – S. 1410–1424.
20. <https://xnelcahffngcif9bjk1b7a3e8dh.xn--p1ai/novosti/pensii-v-kitae>



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.